TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

OCHILOV NIZOMIDDIN NAJMIDDIN O‘G‘LI

OCHIQ KODLI OPERATSION TIZIMLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2023

UDK: 004.451.8(09)

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) on technical sciences

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

OCHILOV NIZOMIDDIN NAJMIDDIN O‘G‘LI

OCHIQ KODLI OPERATSION TIZIMLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/T541 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Karimov Madjit Malikovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Irgasheva Durdona Yakubdjanovna** texnika fanlari doktori, professor
	Kerimov Kamil Fikratovich texnika fanlari doktori, dotsent
	Kuryazov Davlatyor Matyakubovich fizika-matematika fanlari doktori.
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 Ilmiy kengashning 2023 yil ___ _____ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, faks: (99871) 238-65-52, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.). (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil ___ _____ da tarqatildi.
(2023 yil ___ _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.SH. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

E.SH. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

S.K. Ganiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot xavfsizligi (AX) tizimlarini ishlab chiqishga va ularni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya tizimlari rivojining hozirgi darajasida samarali AXni ta'minlashning birmuncha muhim mexanizmlaridan biri bo'lgan operatsion tizimlarni himoyalash masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. "Kasperskiy laboratoriyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda Hindistonda kiberhujumlar soni 2020-yilga nisbatan 1,23 barobarga (23,7 foiz) oshgan. Qozog'iston Respublikasi (14,38 foiz) va Rossiya Federatsiyasida (18,45 foiz) ham bunday hujumlarni aniqlash 2021-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan".[1] Shu munosabat bilan Gollandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Fransiya va boshqalar kabi Yevropa Ittifoqining bir qancha davlatlari kiberhujumlarga qarshi kurashish sohasida ish boshladi. Axborot tizimlari xavfsizligini va tizim fayllarini himoya qilishni yuqori darajada ta'minlovchi dasturiy-texnik vositalar hamda shifrlash mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda ma'lumotlarni shifrlashning zamonaviy algoritmlari samaradorligini oshirish va operatsion tizimlarning (OT) himoyalanish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda: kompyuter tizimlarining ishonchli himoyasini ta'minlash maqsadida ma'lum toifadagi resurslarga shifrlash algoritmlariga asoslangan cheklash usullarini ishlab chiqish. Bunga zamonaviy shifrlash usullari va tizim fayllarini shifrlash kabi himoya vositalari majmuasidan foydalanish orqali erishiladi. OTlarda axborot tizimlarini himoya qilish uchun dasturiy ta'minotlarini ishlab chiqish ham davom etib kelmoqda. Bu kabi o'zgarishlarning barchasi yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

Respublikamiz davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni himoyalash vositalari va usullarini keng qo'llashga va ma'lumotlarni OTlardagi tahdidlardan himoyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan kompyuter tizimlaridagi tahdidlar va hujumlarni aniqlash va ularni bartaraf etish borasida sezilarli natijalarga erishilgan. Jumladan, kompyuter tizimlarining himoyalanganligini ta'minlash maqsadida axborot xavfsizligining monitoringi tizimini, hujumlarni aniqlash va ularni bartaraf etish tizimini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son, «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmonlari, 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4024-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi va 2019 yil 14 sentabrdagi PQ-4452-son «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

[1] https://securelist.ru/it-threat-evolution-in-q1-2022-non-mobile-statistics/105173/

to‘g‘risida» gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish»ning ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.

Jahondagi ko‘plab mamlakatlarda ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligini ta’minlash borasida ishlar olib borilmoqda. Linux, FreeBSD va boshqalar kabi ochiq kodli operatsion tizimlar va ularning rivojlanishi va xavfsizligiga hissa qo‘shadigan ishlab chiquvchilar va xavfsizlik bo‘yicha ekspertlarning global hamjamiyati mavjud. Ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligini ta’minlash borasida ishlar olib borayotgan ayrim mamlakatlarni e’tirof etish joiz.

AQShda ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligi sohasida tadqiqot olib boruvchi ko‘plab tashkilotlar, institutlar va universitetlar mavjud. NSA (Milliy xavfsizlik agentligi), NIST (Milliy standartlar va texnologiyalar instituti) va CERT (kompyuter favqulodda vaziyatlariga javob beruvchi guruh) kabi tashkilotlar tadqiqot va operatsion tizimlar xavfsizligini ta’minlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bilan faol shug‘ullanmoqda.

Yevropaning Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqa mamlakatlarida ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligini ta’minlash usullarini tadqiq qilish va ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. Boxum shahridagi Rur universiteti (Germaniya), ENISA (Yevropa Ittifoqining tarmoq va axborot xavfsizligi agentligi) va OWASP (web-ilovalarning ochiq xavfsizlik loyihasi) kabi ayrim universitetlar va tadqiqot markazlari mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib bormoqda. Shuningdek, Kanadada ham ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligi bo‘yicha faoliyat yurituvchi ishlab chiquvchilar va tadqiqotchilarning faol hamjamiyati mavjud. Ayrim universitetlar, jumladan Vaterloo va Kalgari kabi universitetlar kiberxavfsizlik sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Rossiya Federasiyasi ham ochiq kodli operatsion tizimlarda axborot xavfsizligini ta’minlash ustida ishlar olib bormoqda. Turli tashkilotlar, jumladan, Rossiya kompaniyalari, universitetlari va tadqiqot markazlari universitetlar, institutlar va xususiy kompaniyalarda operatsion tizimlar xavfsizligini oshirish va ishlab chiqish bo‘yicha faol tadqiqot olib bormoqdalar. Rossiya Federasiyasida maxsus xizmat vakillari buyurtmasiga muvofiq ROSA Labs kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llab-quvvatlanuvchi ochiq kodli “ROSA Linux” operatsion tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Shu munosabat bilan, mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy ishlarning aksariyat qismi maxfiy bo‘lgani sababli, Internet tarmoqlarida qator yetakchi mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan ochiq kodli operatsion tizimlar bilan yaqindan tanishish va ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalishda ish olib borayotgan

tadqiqotchilar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. L.Torvalds, R.Xersog, B.Kernigan kabi olimlar Linux oilasiga mansub bo‘lgan operatsion tizimlarni ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borganlar. R.Payk, B.Uord, D.Barrett, S.Alapati, A.Robachevskiy, D.N.Kolesnichenko, M.Flenov, S.Nemnyugin, O.Stesik, T.Adelshtayn, B.Lyubanovich, S.L.Sklovskaya kabi xorijlik va mamlakatimiz olimlarining Linux OT dagi ma’lumotlarni himoyalash tizimini yaratish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganib chiqilgan. MDH davlatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy ishlanmalarida algoritmlarni shifrlash, himoyalash vositalarining turli usullari, modellari va algoritmlari, axborotni himoyalashning nazariy va amaliy tamoyillari, axborotni himoyalash vositalari va usullarini ishlab chiqish bo‘yicha «Astra Linux», «Zarya» OT lari, «Alt Linux», «ROSA» kabi operatsion tizimlar o‘rganib chiqilgan. Turli davlat muassasalarida qo‘llaniluvchi «Doppix» grafik qobiqlari o‘rganilgan.

M.M. Karimov, X.A.Muzaffarov, G‘.U. Jo‘rayev va A.Ikromovlar ilmiy maqolalarida GOST 28147-89 algoritmi bilan shifrlash va himoya tizimlarini yaratish usullari o‘rganib chiqilgan. D.N.Kolesnichenko va V.Allenlar ilmiy ishlarida, Linux Format jurnalining 2014, 2015 va 2016 yillaridagi barcha sonlarida Linux OT yadrosi algoritmlari va tuzilmasi, paket ma’lumotlarga ishlov berish tezligi, xavfsizlik modellari, xavfsizlikni ta’minlash vositalari tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, tarmoqdagi tahdidlardan himoyalash vositalari va usullari to‘la tahlil qilinmagan, mavjud algoritmlardagi kamchiliklar aniqlangan hamda noqonuniy ta’sirlardan himoyalovchi qurilmalarni boshqarish vositalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining innovatsion faoliyat sohasida uch yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ning 2022 yil uchun mo‘ljallangan dasturiga muvofiq “Axborot tizimlari uchun himolangan tizim va vositalarni ishlab chiqish” mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ochiq kodli OT larda milliy shifrlash algoritmlari asosida xavfsizlik talablariga muvofiq, shuningdek, maxfiy ish yuritish sohasidagi standartlar talablarini qondiruvchi maxsus usullar va algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy ochiq kodli OT larda shifrlash algoritmlarining sifat ko‘rsatkichlarini baholashning tasnifi va parallellashtirish masalalari yordamida shifrlash rejimlarini tahlil etish;

himoyalangan fayllar tizimini (HFT) ishlab chiqishda B+ fayllar strukturasidan foydalanishga qo‘yiladigan talablar va HFT tizimlarini yaratish algoritmlari, HFTlarda katalog va jurnallarni tashkil etish;

ochiq kodli OT yadrosi tarkibida shifrlashni tashkillashtirish usullari va ishlash algoritmlarini yaratish;

ochiq kodli OT larda arxivlash yordamida GOST 28147-89 va O‘zDSt 1105:2009 algoritmi asosida shifrlash usullarini va ruxsat etilgan tashqi qurilmalarni

ro‘yxatga olish, o‘chirish va formatlash algoritmi va mexanizmlarini ishlab chiqish, ularga shifrlangan ma’lumotlarni yozish algoritmini yaratish;

GOST 28147-89 algoritmi yordamida shifrlash va arxivlash orqali OT dagi ma’lumotlarning himoyalanganligini tashkillashtirish, initsializatsiya jarayonida tizim fayllarini shifrlash va rasshifrlashni tashkil etish, OT ning fayl tizimi uchun shifrlashning grafik dasturiy ta’minotini ishlab chiqish va grafikli dasturiy majmuasining ishlashining samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida ochiq kodli OT larda mahalliy shifrlash algoritmlari va ular yordamida yaratilgan himoyalangan fayl tizimlari olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida ochiq kodli OT dagi mahalliy standartlar asosida shifrlash usullari va algoritmlari olingan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida axborotni himoyalash usullaridan, algoritmlar nazariyasidan, matematik usullaridan hamda tartibli va obyektga yo‘naltirilgan dasturlashdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

ochiq kodli OT larda shifrlash algoritmlarining samaradorligini ta’minlashda parallel hisoblash texnologiyasi yordamida kriptobardoshliligi baholandi;

ext3/4 fayl tizimlari bilan ishlash uchun optimallashtirilgan algoritmlar taklif qilingan va HFTda, yadroda shifrlash algoritmlari turli o‘lchamdagi fayllar uchun sinovdan o‘tkazilgan shuningdek, fayllarni o‘qish va yozishnin zamonaviy usullari taklif etilgan;

milliy shifrlash algoritmlari asosida xavfsizlik talablariga muvofiq va maxfiy ish yuritish sohasidagi maxsus usullar va algoritmlari taklif etildi hamda O‘zDSt 1105:2009 standartining kriptobardoshliligi statistik tahlillar yordamida baholandi;

ruxsat etilgan tashqi qurilmalarga shifrlangan ma’lumotlarni yozishni ta’minlash OT tomonidan amal oshirilishi natijasida, tashqi kiruvchi/chiquvchi qurilmalarni OT yadrosi darajasida ro‘yxatga olishning majburiy va ulardagi ma’lumotlarni xavfsizligini ta’minlash uchun shifrlash amalini bajarish usuli ishlab chiqilgan;

GOST 28147-89 algoritmi yordamida shifrlash va arxivlash orqali OTdagi ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash maqsadida butun initsializatsiya zanjirini shifrlash UEFI Secure Boot (UEFI dasturlarda elektron raqamli imzolarni tekshiruvchi protokol) va GPG (ma’lumotlarni shifrlash va elektron raqamli imzolarni yaratish dasturi) dan foydalangan holda, tizimni almashtirishdan va tizim dasturlarini buzishdan samarali himoya usuli taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zDSt 1105:2009 shifrlash algoritmiga almashtirish jadvallarining har biri uchun chiziqli va differensial usul yordamida avtomatik ravishda sifatni baholash funksiyasini qo‘llagan holda, hujumlar uyushtirildi va ularning kriptobardoshliligi aniqlangan;

himoyalangan fayllar tizimida fayl bloklari va inodlar algoritmlari va ularning ishlash blok-sxemasi sinov tariqasida turli xil o‘lchamdagi fayllarda testlar o‘tkazilib, baholangan va HFT laridan fayllarni o‘qish va yozishda taklif etilayotgan algoritm ext3/4 da ishlovchi tizimlarda ishlash samaradorligi o‘rtacha 0.5 baravarga oshirilgan;

ochiq kodli OT larda O‘zDSt 1105:2009 standarti asosida kalitlar yordamida shifrlash dasturi exe faylari faqat bitta seans kaliti bilan shifrlashda 10%dan kam bo‘lmagan zichlash samaradorligiga erishilgan;

tajribalar yordamida maxsus yaratilgan arxivlash hamda mahalliy standart yordamida shifrlash dasturida lug‘at hajmi 256 Mbdan oshmasligini inobatga olib, maksimal rejimda arxivlash tezligi fayl parametrlarini kamaytirish orqali o‘rtacha 2-3 martagacha oshirish mumkinligi isbotlangan;

yaratilgan kriptografik modul mahalliy standartga javob berishi uchun sinovdan o‘tkazilgan va mahalliy standartlar asosida shifrlash/rasshifrlash algoritmini amalga oshirishi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarni miqdor va sifat jihatdan baholashni qo‘llagan holda, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetga mos bo‘lgan usullarda nazariy va amaliy darajada tadqiqot o‘tkazish orqali tadqiqot metodologiyasining asoslanganligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Ma’lumotlarni jismoniy va mantiqiy himoyalash usullarida hamkorlikdan foydalanish va ajratish tamoyilini joriy qilish asosida AX tizimlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beruvchi algoritmlar va dasturiy vositalar ishida tavsiya etilgan amaliy aprobatsiyalardan iborat. Axborotni himoyalash va unga ishlov berish uchun universal mexanizmlar tavsiya etilgan va algoritmlar ishlab chiqilgan. Tavsiya etilgan algoritmlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ochiq kodli OT lar uchun xavfsizlik talablariga muvofiq algoritmlar va usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati. O‘zDSt 1105:2009 hamda GOST 28147-89 shifrlash algoritmlari talablariga muvofiq va maxfiy ish yuritish sohasidagi axborotni himoyalashni ta’minlash uchun davlat va huquqiy organlar tomonidan uning xulosalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat yoki tijorat muassasalarida qo‘llash mumkin bo‘lgan axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalarining amalda joriy qilinishi O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarida foydalanuvchi axborot tizimlari va texnologiyalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan AXning birmuncha asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan siyosatini ta’minlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishlab chiqilgan AXni ta’minlash vositalari va usullari hamda yaratilgan algoritmlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ochiq kodli tizimlarda O‘zDSt 1105:2009 standarti asosida kalitlar yordamida shifrlash dasturi “exe” faylari faqat bitta seans kaliti bilan shifrlashda 10% kam bo‘lmagan zichlash samaradorligini ko‘rsatgan. Shuningdek, ruxsat etilgan tashqi qurilmalarga shifrlangan ma’lumotlarni yozishni ta’minlash OT tomonidan bir qator cheklovlar orqali amal oshirilgan. Natijada, tashqi kiruvchi/chiquvchi qurilmalarni OT yadrosi darajasida ro‘yxatga olish va ulardagi ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashda shifrlash amalini bajarishning majburiy usuli tufayli qurilmalardagi ma’lumotlarning chiqib ketishining oldi olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022 yil 17 noyabrdagi 11-06/13043-son ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida “Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi qonun” talablariga mos keluvchi

dasturiy ta’minot hamda mazkur dasturiy ta’minotni amaliyotga tatbiq etish natijasida tashkilotning 1,2 mlrd. so‘m mablag‘lari tejab qolingan;

ochiq kodli OT larda arxivlash yordamida GOST 28147-89 algoritmi asosida shifrlash usuli va ruxsat etilgan tashqi qurilmalarni ro‘yxatga olish, o‘chirish va formatlarining algoritm va mexanizmlari, ularga shifrlangan ma’lumotlarni yozish algoritmlarini ishlab chiqilgan. GOST 28147-89 algoritmi yordamida shifrlash va arxivlash orqali OT dagi ma’lumotlarning himoyalanganligini tashkillashtirish, initsializatsiya jarayonida tizim fayllarini shifrlash va rasshifrlashni tashkil etish, OT ning fayl tizimi uchun shifrlashning grafik dasturiy ta’minotini ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning 2022 yil 23 noyabrdagi 45/01-08-7954-son ma’lumotnomasi). Natijada ochiq kodli OT da dasturiy majmualar va ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash usullarini qo‘llash obyektlarga qayd qilinmagan murojatlardan himoya qilish va ularning himoyalangan OT larini yaratishdagi samaradorlikni aniqlash imkonini bergan;

yaratilgan kriptografik modul mahalliy standartga javob berishi uchun sinovdan o‘tkazilgan va tasdiqlangan. Himoya vositalarining ishlash samaradorligi aniqlangan va OT ning hisoblash resurslari yuklanishiga ta’siri o‘rganilgan hamda ilovani ishga tushirish rejimida protsessorning qo‘shimcha yuklanishi 23% dan, oddiy dasturning ishlash rejimida esa, 17% dan oshmasligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, dasturni ishga tushirish vaqti 4 soniyadan oshmasligi ham ko‘rsatilgan. Olingan natijalarning adekvatligi tajribani statistik qayta ishlanishi bilan isbotlangan. Shuningdek, himoyalangan fayllar tizimida fayl bloklari va inodlar algoritmlari va ularning ishlash blok-sxemasi, sinov tariqasida turli xil o‘lchamli fayllarda testlar o‘tkazilgan va baholangan. (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2022 yil 24 noyabrdagi 4/7271-son ma’lumotnomasi). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar hajmidan qat’iy nazar, HFT laridan fayllarni o‘qish va yozishda taklif etilayotgan algoritm ext3/4 da ishlovchi tizimlarda ishlash samaradorligi qariyb 0.5 baravarga oshirilgan.

“Ochiq kodli operatsion tizimlarda AXni ta’minlashning zamonaviy usullari va algoritmlari” mavzusida dissertatsiya tadqiqotida himoyalangan fayllar tizimlaridan fayllarni o‘qish va yozishda taklif etilayotgan algoritm ext3/4 da ishlovchi tizimlarda ishlash samaradorligi qariyb 0.5 baravarga oshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2022 yil 21 dekabrdagi 40-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy tadqiqot doirasida milliy shifrlash algoritmlari asosida xavfsizlik talablariga muvofiq va maxfiy ish yuritish sohasidagi standartlar talablarini qondiruvchi maxsus usullar va xavfsizlik vositalari hamda algoritmlari ishlab chiqilgan va amaliyotga keng joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shulardan 12 ta maqola Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya

qilingan, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnal nashrlarida chop etilgan hamda EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni qayd etish to‘g‘risida 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 182 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati keltirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan. Ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga tatbiq etish ro‘yxati taqdim qilingan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Ochiq kodli operatsion tizimlarda shifrlash algoritmlarining samaradorligini ta’minlash muammolari»** deya nomlanuvchi birinchi bobi ochiq kodli OT larda hozirgi vaqtda qo‘llanilib kelinayotgan xalqaro standartlar asosida yaratilgan shifrlash algoritmlarinig samaradorligi, shifrlash algoritmlarining xususiyatlari tadqiqi va himoyalangan fayl tizimlari tahliliga bag‘ishlangan. OT larda shifrlash algoritmlari asosida AXni ta’minlash maqsadida ushbu sohadagi xalqaro va mahalliy standartlar tahlil qilingan. Bunday standartlarga misol qilib GOST 28147-89 va O‘zDSt 1105:2009 larini keltirish mumkin. Ochiq kodli OT larda asosan blok shifrlash algoritmlari keng tatbiq etilgan. Ular orasida AQSH MXA (Milliy xavfsizlik agentligi) va Rossiya Federatsiyasining TK-26 (2-GOST) shifrlash algoritmlari o‘rganib chiqilgan. Ko‘plab operatsion tizimlarda fayllar tizimida shifrlash yoki tizim fayllarini shifrlash maqsadida shifrlash amallari bajariladi. Linux oilasidagi OT larda diskni to‘liq shifrlash (FDE-Full Disk Encryption) usuli mavjud bo‘lib, bu kompyuter va tashqi qurilmalardan ma’lumotlarning o‘g‘irlanishidan himoya qilishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib kelmoqda. FDE tizimi OT yuklanishidan oldin ishga tushadi (1-rasm). Bu o‘z navbatida shuni anglatadiki, tizim ishga tushganidan so‘ng operatsion tizimning kodi shifrlangan muhitga yuklana boshlaydi. Shifrlash tizimi o‘z navbatida OTning ishlashni sekinlashtiradi.

Barcha shifrlash/rasshifrlash amallari foydalanuvchiga ko‘rinmas holda amalga oshiriladi. Butun qattiq disk shifrlanganda virtual xotira fayllari, vaqtinchalik fayllar, muhimlilik darajasidan qat’iy nazar, shifrlanadi.

Agar tizim foydalanuvchisi shifrlangan qattiq diskning shifrlash parolini yo‘qotib qo‘ygan taqdirda, tizim administratorining yopiq kaliti yordamida ma’lumotlar qayta tiklanadi.

AXni ta’minlash xalqaro hamjamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu sohada davlatlar o‘rtasida hamkorliklar hozirgi davrda yanada rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat sirlari va maxfiy ma’lumotlari muhofazasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.



1-rasm. FDE usulida himoyalash va himoyalanmagan OT fayllar himoyasi o‘rasidagi tafovut.

O‘zbekiston Respublikasida blok shifrlash algoritmini tavsiflovchi O‘zDSt 1105:2009 standarti asosida yaratilgan shirlash/rasshifrlash algoritmi ishlab turibdi. Dissertatsiya ishining ushbu bo‘limida O‘zDSt 1105:2009 standarti asosida olingan nazariy natijalar keltirib o‘tilgan. O‘zDSt 1105:2009 kriptografik standartida jadval almashinishi 256 qiymatni almashtirishdan iborat va keltirilgan formulaga muvofiq *d, L, R* argumentlari bo‘yicha bit kengaytirilgan k_{se} kalitiga qarab hosil bo‘ladi.

O‘zDSt 1105:2009 shifrlash standartining tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi:

- O‘zDSt 1105:2009 shifrlash algoritmida 2 ta – shifrlash kaliti va funksional kalit ishlatiladi, ularning har biri 256 bitli ketma-ketlikni tashkil etadi. Ushbu kalitlarning birgalikda ishlashi, shifrlash algoritmida 512 bitli shifrlash kalitidan foydalanish bilan barobardir. Bu esa o‘z navbatida, ma’lumotlarni ruxsatsiz rasshifrlash imkoniyatini oldini oladi;
- agar yuqori darajadagi havfsizlik elementlari qo‘llanilsa, funksional kalit har bir seansda almashadi;
- O‘zDSt 1105:2009 shifrlash standarti chiziqli va differensial tahlilga chidamli ekanligi tasdiqlandi, buning uchun raundlar soni 4 tadan yuqori bo‘lishi kifoya.

Ushbu parametrlarning turli xil qiymatlari asosida hosil qilingan almashtirish jadvallarining umumiy soni 4 161 600 ni tashkil qiladi. Shuning uchun asosiy maqsadimiz O‘zDSt 1105:2009 standartining shifrlash algoritmida qo‘llaniladigan almashtirish jadvallari sifatini avtomatik ravishda tekshirish usulini tahlil qilishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining O‘zDSt 1105:2009 kriptografik standartida qo‘llaniladigan algoritm nisbatan yangi bo‘lganligi sababli kam o‘rganilgan. O‘zDSt 1105:2009 kriptografik standartini tahlil qilish jarayonida uning almashtirish

jadvallarini avtomatik ravishda baholashga imkon beradigan parallel algoritmdan foydalaniladi.

Yaratilgan algoritm asosida ixtiyoriy almashtirish jadvallarini tahlil qilish imkoniyatini yaratildi. Masalan, barcha 4-bitlik almashtirish jadvallarini yoki aniq funksiyalar sinflarining barqarorligini tekshirishda bu algoritmni takomillashtirish mumkin bo‘ladi. S-blok butun kriptotizimning “yuragi” bo‘lganligi sababli, uning ustida olib boriluvchi tadqiqot natijalari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar jarayonida shifrlash rejimlarida tizimning initsializatsiya vaqti ham o‘rganilib chiqilgan.



2-rasm. Shifrlash rejimlarining initsializatsiya vaqti

Aksariyat hollarda, tanlangan rejimga qarab shifrlashning boshlang‘ich vaqtlardagi og‘ishlari ahamiyatga ega emas. CBC (Cipher Block Chaining) va CFB (Cipher Feedback Mode) rejimlarida initsializatsiya vaqti ortadi. CBC rejimida shifrlash algoritmining kritobardoshliligi ortadi (2-rasm).

Tahlillar asosida O‘zDSt 1105:2009 standarti uchun axborotni himoyalanganligi va shifr matnlarining kriptobardoshliligini inobatga olib CBC rejimini tanlab olamiz va mazkur rejimida shifrlashda insializatsiya vaqti 0,00025 sek vaqtda bajarilganligini ma’lumot sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Ortib borayotgan davlat tashkilotlari va tijorat firmalari bepul muqobil dasturiy ta’minotlardan foydalanmoqdalar. Xususan, aksariyat korxona va tashkilotlar pullik Windows OT o‘rniga bepul Linux OT dan foydalanishni ma’qul ko‘rmoqdalar.

GOST 28147-89 va O‘zDSt 1105:2009 shifrlash algoritmlarida, almashtirish bloklari, DES (Data Encryption Standard) dagi kabi o‘rnatilmagan va maxfiydir. Shifrlashda qo‘llaniluvchi kalit ham – 256 bitdan iborat bo‘lib, bu kriptobardoshlilikni oshiradi (3-rasm).

Hujjatlar yaratish va turli operatsiyalarni bajarishda OT ning bir qismi bo‘lgan fayllar tizimidan foydalaniladi. Linux OT larining xususiyatlaridan biri – qattiq disklarning katta qismlarida ishlaydigan, minglab fayllarni osonlik bilan o‘lchaydigan va turli o‘lchamdagi fayllar bilan samarali ishlaydigan fayllar tizimini qo‘llab-quvvatlashidir.



	Kalit uzunligi, bit	Blok uzunligi, bit	Shifrlashdagi sikllar soni	Kompelyatsiya uchun sarflangan vaqt, mks
DES	56	64	16	6
GOST 28147-89	256	64	32	70
O'z DST1105:2009	256	256	8	110

3-rasm. Ochiq kodli OT larda shifrlash algoritmlari tahlili

OT foydalanuvchilari asosan tizim tomonidan taqdim etilgan fayl tizimlari bilan ishlaydilar. Ular kamdan-kam hollarda yangi disk bo‘limlarini yaratadilar va ularning sozlamalari haqida kamroq o‘ylagan holda, faqat tavsiya etilgan parametrlardan yoki oldindan formatlangan tayyor tashqi xotiralardan foydalanadilar.

Shifrlash algoritmlarining sifat ko‘rsatkichlarini baholashning tasnifi taklif etilgan va parallellashtirish masalalari yordamida shifrlash rejimlarining tahlili o‘tkazilgan. Zamonaviy OT larda va ochiq kodli OT dan ishlovchi ma’lumotlarni shifrlash/rasshifrlash standartlari qiyoslanilib, ishlash tezligi va kriptotahlillariga baho berilgan. HFT ni ishlab chiqish va yaratish uchun XFS fayl tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. XFS fayl tizimi katta hajmli fayllarni qo‘llab-quvvatlaydi va yaxshi oqimli I/O (kirish/chiqish) ishlashini ta’minlay oladi.

Dissertatsiyaning **«Himoyalangan fayllar tizimi va yadro tarkibida shifrlashni amalga oshirishning zamonaviy usullari va algoritmlari»** deya nomlanuvchi ikkinchi bobida himoyalangan fayllar tizimini yaratishda B+ fayllar strukturasidan foydalangan holda, qo‘yiladigan talablar va HFT tizmilarini yaratish algoritmlari, HFTlarda katalog va jurnallarni tashkil etish taklif etilib, ochiq kodli

operatsion tizimining yadrosi tarkibida shifrlashni tashkillashtirish usullari va ishlash algoritmlariga bag‘ishlangan.

HFT barcha vaziyatlarda B+ fayllar strukturasidan foydalangan. Ular inodlar paketlarini, erkin ro‘yxatlar, katalog yozuvlari va fayl xaritasi yozuvlarini indekslash uchun foydalanilgan. HFTlarning B+ fayllar strukturasidagi (4-rasm) ichki uzellarida faqat kalitlar va ko‘rsatkichlar, barglarida esa kalit ma’lumotlari saqlanadi. HFTda bir nechta fayl strukturalari bo‘lganligi uchun, umumiy kod faqat standart blok sarlavhalari bilan ishlaydi.



4-rasm. HFTlarining B+ daraxtsimon fayllar strukturasi

B+ daraxtining har bir ichki uzeli p_0, key_1, p_1, key_2, p_2 , . . . ,key_n, p_n , bu yerda p_i i-bargining ko‘rsatkichi, $0 \le i \le n$, key_i – kalit, uzeldagi kalitlar o‘sish tartibida joylashgan $key_1 < key_2 < \ldots < key_n$. Kichik daraxtdagi barcha kalitlar p_0 ko‘rsatkichli $k_1$dan kichik. $0 \le i \le n$ holat uchun barcha kalitlar p_i ko‘rsatkichli k_i va k_{i+1} dan kichik. p_n ko‘rsatkichli barcha kalitlar $k_n$dan kichik.

Har bir fayl sarlavhalaridan keyin ma’lumotlar massivlari mavjud. Kalitlar va yozuvlar formati shunga qarab daraxt turi bilan belgilanadi. HFT tizimi 64-bitlik fayl tizimi sifatida qo‘llaniladi. Bunday fayl tizimini yaratishda ko‘rsatkichlarning 64-bitlik bo‘lishi shart emas. Ko‘rsatkichlarning 32-bitli qiymat ichida saqlash ajratish guruhlaridan foydalanishning asosiy mexanizmlaridan biridir. O‘rtacha har bir ajratish guruhlari hajmi 0.5-4 Gb ni tashkil qiladi va o‘z chegaralarida inodlar va bloklarning joylashishini boshqarish uchun o‘z ma’lumot tuzilmalariga ega.

Almashtirish guruhlarining cheklangan kattaligi ular ichida nisbatan 32-bitli inodli raqamlardan foydalanish imkonini yaratadi, bu esa o‘z navbatida ma’lumotlar tuzilmalarining o‘lchamlarini maqbul qiymatlar darajasida saqlaydi.

Strukuturalarda almashtirish guruhlari tarkibidagi ma’lumotlarga 32-bitli raqamlardan foydalanilsa, global ma’lumotlar tuzilmalarida 64-bitli

ko‘rsatkichlardan foydalanib, fayl tizimining istalgan joyida blok va inodlarga murojat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, qisqa muddatga ega bo‘lgan fayllar diskda umuman jismonan saqlanmasligi mumkin. HFT ularni o‘chirishdan oldin joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga ulgurmaydi.

Almashtirish guruhlari odatda ma’lumotlarni guruhlashtirish uchun kamdan-kam qo‘llaniladi, ular juda katta fayllar yoki kataloglar HFT tizimida ma’lumotlar markazi bo‘lib (fragmentatsiyani kamaytirish va o‘qish qobiliyatini yaxshilash maqsadida) xizmat qiladi.

HFT tizimlarini yaratish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, bu dasturchilardan o‘ylangan disk maydonlarini ajratish, algoritmlardan foydalanish va foydalanuvchining so‘rovlarini samarali parallel-lashtirishni talab qiladi. Dasturchi esa ushbu usullar orqali boshqarishni amalga oshirish vositasida katta va o‘rtacha hajmdagi fayllarni qayta ishlash jarayonida ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

HFT tizimlarida har bir inod – yadro, keyingi bog‘langan adres, u va a kabi to‘rt qismli parametrlardan iborat. Yadroda barcha turdagi inodlarga xos doimiy ma’lumotlar mavjud. Yadrodan ajratilgan keyingi bog‘langan adres maydoni bilan ajratishlar guruhi funksional ravishda bog‘langan va blok-sxema ko‘rinishida quyidagicha tasvirlangan (1-blok sxema).

HFT fayl tizimidagi katalogning tarkibi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inodda saqlanadi yoki faylning daraxti orqali manzillanadi. Katalog tuzilmalaridagi barcha amallar mantiqiy, ya’ni ba’zi elementlarning fizik holatini topish uchun fayl tizimi fayllar xaritasiga murojaat qiladi va tegishli o‘zgarishlarni amalga oshiradi.

Agar katalog bitta yagona blokka mos kelmasa, HFTda saqlash uchun daraxt tuzilishini kengaytiradi, bu esa katalog elementlarining ma’lumotlaridan iborat. Fayl nomlari va ularning inodlari va ma’lumotlar bloklaridagi indeks ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan bloklari hamda katalog ichidagi mos elementlarning nomlari va xesh qiymatlaridan iborat.

Ushbu tuzilmalarga bo‘sh bloklar biriktiriladi. Katalog fayli ichidagi mantiqiy bo‘sh joy 8 bitli so‘zlar hisoblanadi.Ushbu struktura-larni faqat daraxt strukturali tizimlar deya atash ham mumkin.

Aslida HFT tizimida kataloglar xeshlash yordamida indekslanadi.

Bularning barchasi HFTni reiserfs kabi kengaytirilgan fayl tizimlaridan funksional orqada qolishiga sabab bo‘lib keladi.

Tizim fayllarining yaxlitligini tekshirish dasturi OT ning xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha mexanizmi hisoblangan. Bunday tizimlar fayllar va kataloglardagi o‘zgarishlarni real vaqt jarayonida tekshirish imkoniyatini yaratgan.

Tizim fayllarining yaxlitligini ta’minlash uchun xesh summani tekshirish amalga oshirilgan. Bunda GOST R 34.11-2012 xeshlash algoritmi qo‘llanilgan. Shuningdek, bu mexanizm tizim kataloglarida ortiqcha fayllarning paydo bo‘lishi va OT fayllari atributlarining o‘zgarishini nazorat qilgan. O‘zDSt 1106:2009 xesh funksiyalari orqali ham xeshlashlarni amalga oshirishi mumkin, lekin kriptobardoshlilik darajasi pastligi kuzatilgan.



1-Blok-sxema. inodlarni yaratish algoritmi.

Sinov tariqasida HFTning oldingi varianti, yangi taklif etilgani va ext3/4 fayl tizimi bilan qiyoslaganda bir yoki ikkita oqim bilan ishlashda ext3/4 HFTga nisbatan sekinroq, ammo oqimlar soni sakkiztaga yetganida esa, tizimning ishlash tezligi chiziqli oshgan (5-rasm).



5-rasm. Fayl tizimlarini qiyoslash grafigi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun Thunar fayl menejerining thunar-enum-types.c va thunar-list-model.c fayllari o‘zgartirilgan. Standart fayl ma’lumotlari orasida kirish darajalarini o‘z ichiga oladigan qiymat mavjud emas.

OT foydalanuvchilariga fayllar tizimi bilan ishlash va fayllar bilan ishlash darajalarini ko‘rishda qulaylik yaratish uchun Thunar fayl menejeriga qo‘shimcha o‘zgartirishlar va imkoniyatlar yaratilgan. Mazkur vazifani bajarish uchun ikki turdagi masalani yechish talab etiladi.

Birinchidan, jadvaldagi ustun (fayl tizimi tomonidan qo‘llanil-mayotgan) aniqlangan va unda ishlash darajasi to‘g‘risidagi ma’lumot ko‘rsatilgan. Ikkinchidan, fayl menejeriga kerakli ma’lumotlarni qayerdan va qanday olish kerakligi haqida ko‘rsatma beradigan modulni ishlab chiqish kerak.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun OT ning standart kutubxonalari va funksiyalaridan foydalanilgan.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun Thunar fayl menejerining thunar-enum-types.c va thunar-list-model.c fayllari o‘zgartirilgan. Standart fayl ma’lumotlari orasida kirish darajalarini o‘z ichiga oladigan qiymat mavjud emas.

Quyidagi modul fayl menedjeri interfeysidagi fayllarga kirish darajalarini ko‘rsatgan (6-rasm). Katta strelkalar ichidagi raqamlar murojaatlar ketma-ketligini belgilagan.



6-rasm. Fayl menejeri interfeysidagi fayllarga kirish darajalari

Himoyalangan fayllar tizimida fayl bloklari va inodlar algoritmlari va ularning ishlash blok-sxemasi, sinov tariqasida turli xil o‘lchamdagi fayllarda testlar o‘tkazilib, baholangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar hajmidan qat’iy nazar, HFTlaridan fayllarni o‘qish va yozishda taklif etilayotgan algoritm ext3/4 da ishlovchi tizimlarda ishlash samaradorligi o‘rtacha 0.5 baravarga oshirgan. OT foydalanuvchilariga himoyalangan fayllar tizimi bilan ishlash va fayllar bilan ishlash darajalarini ko‘rishda qulaylik yaratish uchun Thunar fayl menejeri yordamida qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Dissertatsiyaning **«Mahalliy standartlar asosida shifrlash va arxivlashning zamonaviy usullari va algoritmlari»** deya nomlanuvchi uchinchi bobida mahalliy standartlar asosida shirflash/rasshifrlash usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan. Mahalliy shifrlash standartlaridan O‘zDSt 1105:2009 shifrlash algoritmininig kriptotahlili hamda GOST 28147-89 shifrlash algoritmininig statistik tahlili keltirib o‘tilgan. Ochiq kodli OT larda arxivlash yordamida GOST 28147-89 alogoritmi asosida shifrlash usuli taklif etilgan.

Katta strelkalar ichidagi raqamlar murojaatlar ketma-ketligini belgilagan:

Ruxsat etilgan tashqi qurilmalarni ro‘yxatga olish, o‘chirish va formatlash algoritmi va mexnaizmlari ishlab chiqilib, ularga shifrlangan ma’lumotlarni yozish algoritmi yaratilgan. Tashqi qurilmalar bilan ishlashni avtomatlashtirish maqsadida grafik interfeys yaratilgan.

Mazkur bo‘limda shifrning psevdokodi va almashtirishlari hamda shifrlash algoritmi almashtirishlari va amaliy kriptografik bardoshliligining bahosi (O‘zDSt 1105:2009 ma’lumotlarni shifrlash algoritmi misolida) keltirilgan. Ushbu natijalar asosida shuni aytish mumkinki, O‘zDSt 1105:2009 simmetrik blokli shifrlash algoritmi chiziqli va differensial kriptotahlil usullariga bardoshliligi yuqori darajada.

Hozirgi O‘zDSt 1105:2009 simmetrik blokli shifrlash algoritmidan axborotlarni himoyalashda foydalanilganda yuqori kriptobardoshli himoyani ta’minlaydi, deyish mumkin.

Bir tomondan, oddiy matnda bitning bir vaqtning o‘zida siklning barcha chiquvchi bitlariga o‘zgartirish ta’sirining matematik dalillari bir tekis farq qiladigan to‘g‘ri matnga mos keladigan juft shifr matnlarining ortogonalligidir (o‘zaro bog‘liq bo‘lmaganligi) $m_w = 32$.

Agar mutlaqo tasodifiy 64-bitli blokka (mustaqil ikkilik belgilaridan iborat) e’tibor qaratilsa, u holda bunday bloklardagi nolga teng bo‘lmagan bitlar soni uchun taqsimot qonuni parametrlarga ega binomial hisoblanishini ko‘rish mumkin.

$$m_w = np_0 = 64 \cdot \frac{1}{2} = 32,$$

$$\sigma_w^2 = np_0(1- p_0) = 64 \cdot \left(\frac{1}{2}\right)^2 = 16 .$$

$np_0(1- p_0) \geq 10$ qiymatida, taxminiy yaqinlashish darajasi yuqori bo‘lgan binomial taqsimot, ehtimollik taqsimotining normal qonuni bilan qiyoslanadi (Muavr-Laplas formulasi asosida). m_w qiymatning hosil bo‘lgan qiymatlari esa tasodifiy va 32 ga teng.

Yuqorida keltirilgan savolga aniq javob olish uchun, ishonch oralig‘i usullaridan foydalanilgan. ya’ni, ehtimollik taqsimoti noma’lum parametrlarining taxminiy qiymatlari to‘plamini tuzish uchun maxsus ishlab chiqilgan matematik statistika usuli mohiyati quyidagicha:

$X_1, X_2, \ldots, X_n, n \geq 2$ noma’lum parametrlarga ega bo‘lgan bir xil normal qonunga bo‘ysunadigan mustaqil tasodifiy o‘zgaruvchilarning $EX_i = \theta_1$ va $DX_i = \theta_2$ interval baholashni $u(\theta) = \theta_1$ tuzish talab etilgan.

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \cdot \sum_{i=1}^{n} X_i ; \quad s^2 = \frac{1}{n-1} \cdot \sum_{i=1}^{n} (X - \bar{X})^2 \qquad (1)$$

Tasodifiy o‘zgaruvchi $T = \frac{\sqrt{n}(\bar{X}-\theta)}{s}$ Styudent taqsimlanishining c_{n-1} darajasiga bo‘ysunadi va noma’lum q_1 va $q_2(|\theta_1| \leq \infty, \theta_2 > 0)$ parametrlariga bog‘liq bo‘lmaganligi sababli, har qanday t uchun hodisaning ehtimolliligi faqat t ga bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

$$\left\{\bar{X} - \frac{t \cdot s}{\sqrt{n}} < \theta_1 < \bar{X} + \frac{t \cdot s}{\sqrt{n}}\right\} \qquad (2)$$

Agar, ko‘rsatilgan intervalda baholash c uchun q_1 qabul qilinsa, u $\theta = \{\theta_1, \theta_2\}$ ga bog‘liq bo‘lmagan quyidagi $P_c(\theta_1, \theta_2) = P\{|T| < t\} = 1 - \alpha$ ehtimollik intervaliga mos keladi. Bunday intervallar oralig‘i ishonch ehtimolliklar oralig‘i va uning chegaralari ishonch intervali chegaralari deb ataladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga muvofiq, ishonch ehtimolliligi intervali sifatida $P_c(\theta_1, \theta_2) = 0,999 \longrightarrow (\alpha = 0,001)$, yuqorida keltirilgan Styudent jadvali asosida n ning son qiymati $n = 1024$ (tajribalar asosida) $t = 3,291$ va $\frac{t \cdot s}{\sqrt{n}} = \frac{3,291 \cdot 4}{\sqrt{1024}} = 0,4$ ni

olamiz. Shu bilan birga m_w ni ishonch intervaliga mos kelishligini taxmin qilish mumkin va u quyidagi shartni qanoatlantiradi: $32-0,4 \leq m_w \leq 32+0,4$.



	Ochiq matnni zichlash ko‘rsatkichi, %	Shifrlangan matnni zichlash ko‘rsatkichi, %
Exe – fayl	59	18
Word – fayl	63	9
Matnli fayl	63	6

7-rasm**.** Shifrlangan matnlar va ochiq matnlarning zichlash algoritmi o‘rtasidagi tafovut.

Ochiq kodli OTlarda GOST 28147-89 standarti asosida ochiq kalitlar yordamida shifrlash dasturi “exe” faylari faqat bitta sean kaliti bilan shifrlashda, 10% kam bo‘lmagan zichlash samaradorligini ko‘rsatadi (7 - rasm). Bu esa shunday fayllarda bir xil matnlarning mavjudligi ko‘pligi bilan tushuntiriladi, qolgan barcha fayllarda esa xar xil seans kalitlarida yaxshiroq natijalarga erishish mumkin.

